

Kredit mahsuloti pasporti			
Kredit mahsuloti nomi	TE Z K O R S A R M O Y A		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Ochiq kredit liniyasi orqali		
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida faqat aylanma mablagʻlarni toʻldirish uchun		
Kredit valyutasi	Oʻzbekiston Respublikasi milliy valyutasi yoki xorijiy valyuta (loyiha koʻrib chiqilayotgan kundagi Markaziy Bankning rasmiy valyuta kursi boʻyicha aniqlangan) ekvivalentida (*)		
Kredit oluvchilar	Faoliyat yuritib kelayotgan davri uch (3) oydan kam boʻlmagan, doimiy faoliyat yuritayotgan va muntazam pul aylanmalariga ega boʻlgan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan tadbirkorlik subyektlar/yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan tadbirkorlik subyektlar		
	Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan tadbirkorlik subyektlari (XK, MCHJ, XF, QK va xk.)	Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan tadbirkorlik subyektlari - YaTT,OT,XT va xk.	
Kredit miqdori	500 000 000,0 (Besh yuz million) soʻmgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada	300 000 000,0 (Uch yuz million) soʻmgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada	
Kredit miqdorini hisoblash	Kredit summasi mijozning oxirgi 3 oy davomida hisob-raqamiga asosiy faoliyati doirasida kelib tushgan pul mablagʻlarning 50 foizidan oshmagan miqdorda oʻrnatiladi.		
Kredit ajratish shakli	Kredit mablagʻlari qarzдорning tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq amaliyotlar boʻyicha xarajatlar toʻlovlarini amalga oshirish uchun uning depozit hisob raqamiga oʻtkazish orqali va/yoki mijoz tomonidan taqdim etilgan shartnomaga asosan oʻtkaziladi. Kredit mablagʻlarining maqsadli ishlatilishi alohida tartibda tekshirilmaydi va dalolatnoma tuzish orqali rasmiylashtirilmaydi. Lekin, kredit mablagʻlari boshqa kredit qarzдорliklarini soʻndirish, boshqa shaxslarga moliyaviy yordam koʻrsatish yoki olingan moliyaviy yordamlarni qaytarish uchun sarflanmasligi shart.		
Kredit muddati	12 oy muddatgacha	24 oy muddatgacha	36 oy muddatgacha
Milliy valyutada foiz stavkasi	yillik 26,50 %	yillik 28,50 % dan kam boʻlmagan	yillik 30,50 % dan kam boʻlmagan
Xorijiy valyutada foiz stavkasi (*)	yillik 13,50 % (*)	yillik 14,50% (*) dan kam boʻlmagan	yillik 16,50 % (*) dan kam boʻlmagan
Imtiyozli davr	6 oy muddatgacha		
Kredit qarzдорligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzдорligi mavjud boʻlgan taqdirda jami qarzдорlik yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan tadbirkorlik subyektlari boʻyicha 5,0 mlrd.soʻm ekvivalentidagi summadan, yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) boʻyicha 3,0 mlrd. soʻm ekvivalentidagi summadan oshmasligi lozim. Shuningdek, nazorat asosida bir qarzдор yoki oʻzaro aloqador qarzдорlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami qarzдорlik 7,0 mlrd.soʻm ekvivalentidagi summasidan oshmasligi lozim.		
Kreditni soʻndirish tartibi	Differentsial/Annuitet		
Kredit taʼminoti	Sugʻurtalash shartlari bank uchun maqbul boʻlgan sugʻurta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xatarini sugʻurtalash polisi;		
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik va moliyaviy hujjatlar	Xoʻjalik yurituvchi subyektlar	Kredit arizasi, taʼsis hujjatlari, korxona taʼsischilari va rahbariyati maʼlumotlari, kredit olish va/yoki garov taʼminotini taqdim etish yuzasidan taʼsischilar roziligi/qarori;
			Moliyaviy hisobotlar va maʼlumotlar (1-2-shakl, yillik va operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa maʼlumotlar
		Yakka tartibdagi tadbirkorlar (xususiy tadbirkorlar)	Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat koʻrsatayotgan joyi boʻyicha maʼlumotlar;
			Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi koʻrsatilgan holda kredit mablagʻlarining qaytarilishini asoslab koʻrsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyihani amalga oshirish bilan bogʻliq boshqa hujjatlar
	Biznes reja va loyiha hujjatlari	Xoʻjalik yurituvchi subyektlar	Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi koʻrsatilgan holdagi kredit mablagʻlarining qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob kitoblar
			Loyihani amalga oshirish bilan bogʻliq boshqa hujjatlar

Qo'shimcha shartlar	Qarz oluvchiga "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida faqatgina sug'urta polisi ta'minoti asosida berilgan kreditlarning miqdori umumiy qiymatda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 500,0 mln.so'mdan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 300,0 mln. so'mdan oshmasligi lozim. Shuningdek nazorat asosida bir qazrdor yoki o`zaro aloqador qarzddorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda ta'minotida faqatgina sug'urta polisi bo'lgan umumiy kreditlari qoldig'i 1,0 mlrd.so'mdan oshmasligi lozim;
Mijozga qo'yiladigan talablar	1. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning moliyaviy faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 2. Yillik va so'nggi choraklik hisobot davriga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmasligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzddorligi bo'lmasligi; 4. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzddorliklari 2 tadan ko'p bo'lmasligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzddorliklari 1 tadan ko'p bo'lmasligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzddorliklari bo'lmasligi; 5. Nazorat asosida o'zaro aloqador korxonalarining "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzddorliklari mavjud bo'lmasligi; 6. Nazorat asosida qarz oluvchini kredit tarixi to'g'risidagi (KATM) ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarining "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan amaldagi kreditlari mavjud bo'lmasligi; 7. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda amaldagi kreditlari yuzasidan asosiy qarzddorlik va kreditga hisoblangan foiz qarzddorliklari bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatlarini uzaytirish holatlari bo'lmasligi; 8. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan/mavjud majburiyatlari boyicha belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari (umumiy jihatdan bajarilmaganligi, boshqa holatlari ya'ni muddatida bajarilmaganligi mustasno) mavjud bo'lmasligi; 9. "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmasligi lozim. (Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi); 10. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmasligi lozim; 11. Ohirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnoma ko'rib chiqilib, rad etiladi.

(*) Kredit mablag'larini xorijiy valyutada ajratish bankning ichki me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar xorijiy valyutada moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan loyihalar bo'yicha import shartnomalarini moliyalashtirish maqsadlari uchun, shuningdek, ustuvor ravishda eksport tushumlariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.